

**O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining
BAYONI**

2026-yil 5-yanvar

4-son

Toshkent shahri

Raislik qildi: A. Ayubjonov – Jamoatchilik kengashi raisi.

Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a‘zolari, Milliy statistika qo‘mitasi raisi o‘rinbosari va tegishli tarmoq boshqarma va bo‘lim boshliqlari.

KUN TARTIBI:

- I. 2025-yil IV chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar to‘g‘risida ma‘lumot;**
- II. Ro‘yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko‘rish masalalari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobot;**
- III. Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar holati tahlili;**
- IV. Milliy statistika qo‘mitasiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan va ko‘rib chiqilgan murojaatlar bo‘yicha IV chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar.**

(A. Ayubjonov, Z. Tojiyeva, U. Abdurasulov)

Milliy statistika qo‘mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi (keyingi o‘rinlarda Jamoatchilik kengashi) raisi A. Ayubjonov yig‘ilishni ochib berib, kun tartibidagi masalalar bilan ishtirokchilarni tanishtirdi.

I. 2025-yil IV chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar to‘g‘risida rais o‘rinbosari Z. Ziyayevning hisoboti eshitildi:

Dasturga muvofiq 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida jami **3126 ta** statistika ishlari belgilangan muddatlarda va to‘liq hajmda bajarildi, shundan **1672 tasi** Milliy statistika qo‘mitasi va uning organlari tomonidan, **905 tasi** rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan va **549 tasi** boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan bajarildi.

Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan, iqtisodiyot sohalari hamda tarmoqlari rivojlanishi maqsadli kompleks dasturlari monitoringi uchun doimiy ravishda miqdoriy ko‘rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistika ma’lumotlari har oyda Hukumatga taqdim etib borildi.

2025-yilning yanvar-dekabr davrlari uchun O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo‘yicha statistika ma’lumotlari tayyorlanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank hamda boshqa vazirlik va idoralarga taqdim etildi.

Statistika dasturiga muvofiq bajarilgan ishlar natijalariga ko‘ra shakllantirilgan ochiq statistika ma’lumotlari, axborotnomalar, to‘plamlar, press-relizlar ko‘rinishida hamda ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda milliy va xorijiy foydalanuvchilar e’tiboriga yetkazib berildi.

Xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi qo‘mitaning rasmiy Telegram kanalida **1250 ta**, Facebook sahifasida **1250 ta** va Instagram sahifasida **890 ta** yangiliklar e’lon qilindi.

Shuningdek, **40 ta** infografika roliklari hamda statistika faoliyatiga oid **210 dan ziyod** lavhalar “O‘zbekiston 24” telekanalida doimiy tarzda efirga uzatilib kelinmoqda.

“Xalq so‘zi”, “Narodnoye slovo”, “Yangi O‘zbekiston”, “Pravda Vostoka”, “Birja” va boshqa nashrlarda statistika ko‘rsatkichlari aks etgan **54 ta** materiallar chop etildi.

Xalqaro statistika amaliyoti tavsiyalarini inobatga olgan holda, statistika sohasining turli yo‘nalishlari bo‘yicha 2025- yil yanvar-dekabr oylarida **30 ta** yangi uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqildi.

Ochiq ma’lumotlar portali faoliyatini takomillashtirish, ma’lumotlar sifatini oshirish va ko‘lamini kengaytirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida, portalda e’lon qilinayotgan ma’lumotlar to‘plamlari soni **7 mingdan** oshdi.

Jumladan, Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan portalda e’lon qilinayotgan statistika ma’lumotlari to‘plamlari soni **2198 tani** tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida xalqaro tashkilotlarning **49 ta** savolnomalari, jumladan, BMT Statistika bo‘limining **10 ta**, YUNESKO statistika institutining **9 ta**, MDH Davlatlararo Statistika Qo‘mitasining **2 ta**, Xalqaro avtomobil yo‘llari federatsiyasining **1 ta** va boshqa xalqaro tashkilotlarning **28 ta** savolnomalari to‘ldirilib, taqdim etildi.

Bundan tashqari, **4 ta** xalqaro ma’lumotlar bazalaridagi, xususan, XVJning kengaytirilgan Ma’lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi doirasida, MDH va “COMTRADE” ma’lumotlar bazalarida O‘zbekistonning statistika ko‘rsatkichlari o‘z vaqtida yangilandi.

Jumladan, tovarlar savdosi bo'yicha BMTning "COMTRADE" axborot bazasida **4492 ta** tovar turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ma'lumotlarini har oyda yangilab borilishi ta'minlandi.

XVJning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi (e-GDDS) doirasida **275** indikator bo'yicha ma'lumotlar muntazam yangilab borilmoqda.

Bundan tashqari, XVJning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimidan (e-GDDS) Ma'lumotlarni tarqatishning maxsus standartiga (SDDS) o'tish yuzasidan zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda.

II. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlari bo'yicha Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi boshlig'i Qambarov Jaxongir Xoshimjonovich ma'lumot berdi.

O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida" PF-173-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" 629-son Qarorida ijrosiga muvofiq aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlari bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish davomida aholini ro'yxatga olish tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida respublika bo'yicha 12 ta hudud va 208 ta tuman (shahar) miqyosida maxsus shtablar tashkil etildi hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirishning yagona vertikal boshqaruv tizimi shakllantirildi. Ushbu shtablar faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida ular o'rtasida tezkor va ishonchli axborot almashinuvi tizimi joriy etildi hamda markazlashtirilgan monitoring mexanizmi yo'lga qo'yildi.

Hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ma'lumotlar muntazam ravishda yig'ilib, tahlil qilindi hamda ular asosida rahbariyat va Vazirlar Mahkamasiga tizimli ravishda axborot kiritib borildi, bu esa qaror qabul qilish jarayonlarining tezkorligi va samaradorligini ta'minladi.

Ro'yxatga olish jarayonlariga tayyorgarlik doirasida Milliy statistika qo'mitasi markaziy apparatining boshqaruv xodimlari soni 14 ta shtat birligiga oshirilib, sohada tajribaga ega mutaxassislar va axborot texnologiyalari bo'yicha kadrlar bilan mustahkamlandi. Shuningdek, hududiy statistika boshqarmalariga 2025-yil 1-oktyabrdan 2026-yil 1-mayga qadar jami 70 nafar mutaxassis fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida jalb etildi.

Ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Mahallalari uyushmasidan 9 008 ta mahalla kesimida 7,7 mln xonadon to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, Kadastr agentligidan qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanuvchi 153 mingdan ortiq tashkilotlar ro'yxati shakllantirildi.

Kadrlar tayyorlash bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, trenerlarni o'qitish dasturi ishlab chiqildi. 28 nafar markaziy apparat mutaxassisi ishtirokida 294 nafar statistika organlari xodimlari, 14 nafar Mahallalar uyushmasi vakillari hamda 70 nafar oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilaridan iborat trenerlar jamoasi tayyorlandi. Shuningdek, hududlarga biriktirilgan 222 nafar vazirlik va idoralar mas'ul rahbarlari o'qitildi hamda ular tomonidan joylarda ro'yxatga oluvchilarni o'qitishning keyingi bosqichlari tashkil etildi.

Milliy statistika qo'mitasida ishchi guruhlar tashkil etildi hamda hududiy komissiyalarga uslubiy, tashkiliy va texnik ko'mak ko'rsatildi. Jami 208 ta tuman (shahar) va 14 ta viloyat darajasida tashkiliy rejalar tasdiqlandi, respublika bo'yicha yagona yig'ma tashkiliy reja shakllantirildi. Umuman olganda, tadbirni tartibga solish maqsadida 30 dan ortiq me'yoriy-tashkiliy hujjatlar qabul qilindi.

Ro'yxatga olish ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash uchun zamonaviy axborot tizimining veb, planshet va mobil versiyalari ishlab chiqildi. 2025-yil dekabr oyida respublika bo'yicha 7 mlndan ortiq turar joy obyektlarining GPS-koordinatalari aniqlashtirildi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida milliy sertifikatga ega kriptografik himoya vositalari joriy etildi, axborot tizimi "OneID" platformasi bilan integratsiya qilindi va amaliyotga tatbiq etildi.

Shuningdek, 2025-yil noyabr oyida 224 ta olis va borish qiyin bo'lgan mahallada muddatidan oldin ro'yxatga olish ishlari amalga oshirildi, 350 nafarga yaqin mas'ul xodimlar maxsus toifalar bo'yicha o'qitildi hamda sinov ro'yxatga olish amaliyoti xalqaro ekspertlar ishtirokida o'tkazildi.

Tashkiliy-texnik tayyorgarlik doirasida planshet qurilmalari xatlovdan o'tkazilib, 2 409 ta zaxira qurilma shakllantirildi, 37 000 dona beydjik va xizmat guvohnomalari tayyorlandi.

Tayyorgarlik davomida barcha hududiy ishchi guruhlar faoliyati ustidan monitoring ishlari tashkil etildi. Haftalik monitoring jadvallari shakllantirilib, 14 ta hududiy statistika boshqarmalarida topshiriqlarning bajarilish holati baholandi.

Shuningdek, GIS ma'lumotlari asosida kunlik monitoring jadvallari shakllantirilib, hududlar kesimida tahlil ishlari olib borildi. Monitoring ishlari belgilangan jarayonlarni qat'iy nazorat qilish va shaxsiy javobgarlikni kuchaytirish maqsadida amalga oshirildi.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish savolnomasi uchun respublika hududida joylashgan 110 mingdan ortiq ko'chalarni qamrab olgan ko'chalar klassifikatori shakllantirildi. Klassifikatorni tayyorlash jarayonida ma'lumotlar hududlardan yig'ib olingan tashkiliy reja ma'lumotlari asosida umumlashtirildi hamda ularning aniqligi va ishonchliligi ta'minlandi. Yig'ilgan ma'lumotlar tegishli hududlardagi mahallalarning STIR raqamlari bilan bog'lanib, yagona ma'lumotlar bazasiga kiritildi.

Shuningdek, savolnomani tayyorlash jarayonida jami 157 ta kasblar klassifikatori shakllantirildi hamda ular 9 ta tilga tarjima qilindi. Klassifikatorlarni ishlab chiqishda xalqaro standartlarga moslik, terminologik uyg'unlik va ma'lumotlarning tizimliliigi ta'minlandi. Har bir klassifikatorning tarjima variantlari mutaxassislar tomonidan tahririy ko'rib chiqilib, lug'aviy va uslubiy mosligi tekshirildi hamda yakuniy tahrirga keltirildi. Shakllantirilgan klassifikatorlar amaliyotda qo'llash uchun tayyor holatga keltirildi.

Savolnomaning elektron shaklidagi savol va javoblar uchun 9 tilda jami 363 ta izoh ishlab chiqildi. Mazkur izohlar dasturiy ta'minotda har bir savol yoki javobning burchak qismida joylashtirilgan "i" belgisi orqali kiritildi.

Ro'yxatga olish ma'lumotlarining sifatini ta'minlash maqsadida test rejimida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tekshirish ishlari amalga oshirildi. Jumladan, 6-shakl bo'yicha ma'lumotlar belgilangan tartibda eStat 4.0 axborot tizimiga joylashtirilib, ular bo'yicha mantiqiy nazorat mexanizmlari ishlab chiqildi va to'liq tekshirildi.

5-shakl bo'yicha veb va planshet dasturlari uchun qo'shimcha mantiqiy nazorat qoidalari ishlab chiqilib, ma'lumotlar qayta ko'rib chiqildi hamda chiquvchi jadvallar shakllantirildi. Shuningdek, anomal holatlarni aniqlash maqsadida risk jadvallari tayyorlandi. Shu bilan birga, 6-shakl bo'yicha yuridik shaxslarning yagona ro'yxati (katalogi) shakllantirildi.

Ro'yxatga olish jarayoniga tayyorgarlik doirasida census.stat.uz platformasi orqali ro'yxatdan o'tish bosqichlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi.

Jarayonlarni monitoring qilish maqsadida maxsus axborot tizimi ishlab chiqilib, hududlar kesimida kunlik nazorat mexanizmi joriy etildi. Savollarga tezkor javob berishni ta'minlash maqsadida 1851 qisqa raqamli Call-markaz tashkil etildi hamda mazkur markazga jalb etilgan mutaxassislarni o'qitish ishlari amalga oshirildi. Shu bilan birga, ular ehtimoliy savollar va ularga javob variantlari bilan ta'minlandi.

Axborot-tushuntirish ishlari doirasida keng qamrovli media tadbirlar amalga oshirilmoqda, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali aholining xabardorlik darajasi oshirib kelinmoqda.

III. Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar holati tahlili.

Milliy statistika qo‘mitasida 2025-yil davomida, shu jumladan yilning IV choragida korrupsiyaning oldini olish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini mustahkamlash borasida tizimli ishlar amalga oshirildi.

Hisobot davrida markaziy apparat hamda hududiy statistika organlarida jami 200 ga yaqin targ‘ibot tadbirlari tashkil etildi, shundan 60 ga yaqini IV chorak hissasiga to‘g‘ri keldi. Mazkur tadbirlar doirasida seminar-treninglar, tushuntirish uchrashuvlari va profilaktik muloqotlar o‘tkazildi.

Shuningdek, 2025-yil 24-iyunda qabul qilingan 63-son buyruq asosida 12 ta siyosat va reglament yangilanib, ular bilan xodimlarni har chorakda belgilangan tartibda tanishtirib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish yo‘nalishida ham tegishli ishlar olib borildi. Jumladan, yil davomida, shu bilan birga IV chorakda ishga qabul qilingan barcha xodimlardan belgilangan tartibda deklaratsiyalar olindi. O‘rganishlar natijasida markaziy apparatda 1 ta holat aniqlanib, u o‘z vaqtida bartaraf etildi.

Qo‘mita tizimida tuzilayotgan shartnomalarda korrupsiyaga qarshi normalarni mustahkamlash choralariga alohida e‘tibor qaratildi hamda ushbu yo‘nalishda qoidabuzarlik holatlari aniqlanmadi. Yil davomida kelib tushgan murojaatlar orasidan korrupsiya holatlariga aloqador deb taxmin qilingan murojaatlar ham belgilangan tartibda o‘rganib chiqildi. Xususan, IV chorak davomida kelib tushgan 5 ta murojaat yuzasidan o‘rganish ishlari olib borilib, natijalari bo‘yicha tegishli javob xatlari yuborildi.

Ishga qabul qilish jarayonlari ochiq tanlov asosida tashkil etilib, yil davomida 900 dan ortiq nomzod belgilangan tartibda o‘rganib chiqildi.

Hisobot choragida 1 500 dan ortiq xodim korrupsiyaga qarshi targ‘ibot tadbirlarida ishtirok etdi, 300 dan ortiq xodim, shu jumladan yangi ishga qabul qilingan xodimlar qayta tayyorlash hamda umumiy o‘quv kurslarida qatnashdi. Bundan tashqari, yil davomida 3 000 dan ortiq targ‘ibot materiallari tarqatildi.

Umuman olganda, ichki nazorat bo‘limi tomonidan tizimdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish, profilaktik mexanizmlarni kuchaytirish va murosasiz muhitni yanada mustahkamlash bo‘yicha rahbariyatga muntazam ravishda takliflar kiritib borilmoqda.

IV. Milliy statistika qo‘mitasiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan va ko‘rib chiqilgan murojaatlar bo‘yicha IV chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar.

Milliy statistika qo‘mitasida murojaatlar bilan ishlashni samarali tashkil etish va ijrosini nazorat qilish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2025-yil yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda 12 ta sayyor qabul o'tkazilib, 297 nafardan ortiq fuqaro va tadbirkorlar ishtirok etdi. Murojaatlarning ko'pi joyida hal qilindi, 84 tasi ro'yxatga olinib, belgilangan tartibda javob berildi.

Milliy statistika qo'mitasiga 2025-yil yakuni bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarning jami soni 961 tani tashkil etib, ularning 434 (45,2%) nafar jismoniy shaxslar, 527 (54,8%) nafar yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri keldi.

Shundan, 189 ta murojaat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 465 tasi elektron pochta orqali, 282 tasi og'zaki murojaatlar, 25 tasi to'g'ridan – to'g'ri kelib tushgan

Murojaatlar mazmuni:

- 504 tasi (52,5 %) – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar taqdim etish;
- 221 tasi (22,9 %) – amaliy yordam so'rash;
- 113 tasi (11,8 %) – Yagona davlat registri masalalari;
- 75 tasi (7,9 %) – statistik hisobotlarni taqdim etish;
- 21 tasi (2,2 %) – ish staji, ish haqi, tashkilot nomining o'zgarishi to'g'risidagi arxiv ma'lumotlari;
- 3 tasi (0,3%) taklif;
- 6 tasi (0,6%) shikoyat;
- 18 tasi (1,8 %) – boshqa masalalar.

Hududlar kesimida eng ko'p murojaatlar Toshkent shahridan (493 ta, 51,3 %) kelib tushdi.

Jami 961 murojaatdan 877 tasi ko'rib chiqildi, 84 tasiga tushuntirish berildi, Barcha murojaatlar rahbariyat nazoratida bo'lib, o'z vaqtida javoblar taqdim etildi.

Jamoatchilik kengashi qaror qiladi:

1. Taqdim etilgan hisobotlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. "2025-yil uchun Statistika dasturi" doirasida 2025-yil IV chorak yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida hisobot va jamoatchilik kengashiga "2026- yil uchun Statistika dasturi" loyihasini ma'qullash uchun kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
3. Xodimlar malakasini oshirish, xorijiy tajribani o'rganish, o'quv kurslari va seminarlar muntazam tashkil etilsin hamda keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida rasmiy veb-sayt, OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali tizimli yoritilishi ta'minlansin;
4. Jamoatchilik kengashi huzurida ijro intizomini mustahkamlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish va aholini ro'yxatga olish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-

tadbirlar qat'iy nazoratga olinsin. Kengash kotibi yig'ilish bayoni nusxasini Milliy statistika qo'mitasiga taqdim etishni ta'minlasin.

Jamoatchilik kengashi
mas'ul kotibi



U. Abdurasulov